




**FORS KO'RFAZI ARAB DAVLATLARI VA MARKAZIY
OSIYO O'RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALARNING
ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI: GEOIQTISODIY
OMILLAR, ASOSIY YO'NALISHLAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

Sodiqova Farangiz

Magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22109047>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 15-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 26-avgust 2026 yil

KEY WORDS

Fors ko'rfazi, GCC, Markaziy Osiyo, investitsiya, kapital oqimlari, tashqi savdo, iqtisodiy hamkorlik, energetika, transport-logistika, geoiqtisodiy integratsiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi (GCC) mamlakatlari va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi zamonaviy iqtisodiy aloqalarning rivojlanish tendensiyalari, asosiy yo'nalishlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Quvayt, Ummon va Bahraynning O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston hamda Turkmaniston bilan iqtisodiy munosabatlari savdo, investitsiya, energetika, transport-logistika va iqtisodiy diversifikatsiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari GCC davlatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy manfaatlari bir qator yo'nalishlarda o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. GCC mamlakatlari kapital, moliyaviy resurslar, investitsiya institutlari va xalqaro biznes tajribasiga ega bo'lsa, Markaziy Osiyo tabiiy resurslar, qayta tiklanuvchi energetika salohiyati, transport-geografik joylashuvi va rivojlanayotgan bozorlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, iqtisodiy aloqalarning mavjud darajasi ikki mintaqaning potensial imkoniyatlariga to'liq mos kelmaydi. Maqolada iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish uchun investitsiya muhitini takomillashtirish, savdo to'siqlarini kamaytirish, transport koridorlarini rivojlantirish, energetika hamkorligini kengaytirish va institutsional mexanizmlarni kuchaytirish zarurligi asoslanadi.

Kirish

XXI asrning uchinchi o'n yilligida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi geoiqtisodiy raqobatning kuchayishi, global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi, energetika bozoridagi transformatsiyalar va investitsiya oqimlarining yangi geografik yo'nalishlarga siljishi bilan tavsiflanmoqda. Bunday sharoitda Fors ko'rfazi mamlakatlari va

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning strategik ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, GCC mamlakatlarining iqtisodiy diversifikatsiya siyosati va Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari o'zaro manfaatli hamkorlik uchun yangi imkoniyatlarni shakllantirmoqda. GCC tarkibiga Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Quvayt, Ummon va Bahrayn kiradi. Markaziy Osiyo esa O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonni qamrab oladi. Ushbu ikki mintaqqa iqtisodiy tuzilmasi jihatidan bir-biridan farq qilsa-da, ularning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarida iqtisodiy diversifikatsiya, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, energetika samaradorligini oshirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish kabi umumiy ustuvor yo'nalishlar mavjud. 2026-yilda Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan maxsus tadqiqotda ham GCC va Kavkaz-Markaziy Osiyo mamlakatlarining uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarida diversifikatsiya, infratuzilma, biznes muhiti, innovatsiyalar va savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani qayd etilgan. Mazkur sharoitda GCC–Markaziy Osiyo iqtisodiy aloqalarini faqat investitsiya oqimlari bilan cheklab o'rganish yetarli emas. Ikki mintaqqa o'rtasidagi munosabatlar savdo, kapital harakati, energetika, transport, logistika, turizm, moliyaviy xizmatlar va texnologik hamkorlikni ham qamrab oluvchi kompleks iqtisodiy tizim sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, institutsional tahlil va geoiqtisodiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon banki, Yevroosiyo taraqqiyot banki hamda GCC va Markaziy Osiyo mamlakatlarining rasmiy ma'lumotlari tashkil etadi. Tadqiqotda alohida e'tibor iqtisodiy munosabatlarning uchta asosiy tarkibiy qismiga qaratildi: savdo aloqalari, investitsiya va kapital oqimlari hamda strategik infratuzilmaviy hamkorlik. Bunday yondashuv GCC–Markaziy Osiyo munosabatlarining faqat joriy holatini emas, balki ularning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini ham baholash imkonini beradi.

Asosiy qism

GCC va Markaziy Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar dastlab asosan ikki tomonlama diplomatik va savdo munosabatlari doirasida rivojlangan bo'lsa, keyingi yillarda ularning mazmuni kengayib bordi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarida iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi va GCC mamlakatlarida iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarining kuchayishi ikki mintaqqa o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlarining yaqinlashishiga olib keldi. GCC davlatlari uchun Markaziy Osiyo yangi investitsiya bozorlari, tabiiy resurslar, energetika va logistika loyihalari uchun istiqbolli hudud hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari uchun esa GCC kapitali yirik infratuzilmaviy va ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish, texnologiyalarni jalb qilish hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiruvchi manbalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, ikki mintaqqa o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini faqat davlatlararo savdo hajmi bilan baholash to'g'ri emas. Yirik investitsiya loyihalari, davlat-xususiy sheriklik, suveren investitsiya fondlari faoliyati va xalqaro transport loyihalari ham iqtisodiy aloqalarning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. 2026-yilda IMF tomonidan e'lon qilingan tadqiqotda GCC va Kavkaz-Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar hali nisbatan cheklangan bo'lsa-da, mavjud salohiyatdan foydalanish orqali savdo va investitsiyalarni sezilarli darajada kengaytirish mumkinligi ta'kidlangan. Tadqiqotda savdo va investitsiya aloqalarini rivojlantirish uchun tarif va notarif to'siqlarni kamaytirish, moliyaviy aloqalarni yaxshilash hamda investitsiya muhitini takomillashtirish muhimligi ko'rsatilgan.

GCC mamlakatlarining Markaziy Osiyodagi iqtisodiy faolligining eng muhim yo'nalishlaridan biri investitsiyalardir. Bunda davlat kapitali va xususiy sektor investitsiyalarini alohida ko'rib chiqish zarur. GCC mamlakatlari yirik suveren investitsiya fondlariga ega bo'lib, ular uzoq muddatli investitsiya strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega. Shu sababli GCC kapitalining Markaziy Osiyoga kirib kelishi ko'pincha uzoq muddatli infratuzilmaviy va strategik loyihalar bilan bog'lanmoqda. Bunday investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati faqat moliyaviy resurslar hajmi bilan belgilanmaydi. Xorijiy kapitalning kirib kelishi bilan birga yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi, xalqaro standartlar va ishlab chiqarish kooperatsiyasi ham kirib kelishi mumkin. Shu sababli GCC investitsiyalarining Markaziy Osiyo iqtisodiyotiga ta'sirini baholashda kapitalning miqdori bilan bir qatorda uning tarmoq tarkibi, texnologik mazmuni va yaratilayotgan qo'shilgan qiymat darajasini ham hisobga olish lozim. O'zbekiston mazkur jarayonda alohida ahamiyatga ega. Mamlakatning iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishi, xususiy sektorni kengaytirishi va investitsiya muhitini takomillashtirishi xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlarni shakllantirmoqda. Jahon banki O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi eng yirik aholi bozoriga ega va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni faol ilgari surayotgan mamlakat sifatida baholaydi. 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar xususiy sektor yetakchiligidagi o'sish uchun sharoitlarni mustahkamlashga qaratilgan.

Energetika GCC va Markaziy Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning strategik yo'nalishlaridan biridir. Bunda ham an'anaviy neft-gaz loyihalari, ham qayta tiklanuvchi energetika loyihalarining ahamiyati ortib bormoqda. GCC davlatlari neft va gaz sohasidagi katta tajribasi bilan bir qatorda qayta tiklanuvchi energetika va yashil iqtisodiyotga ham faol investitsiya qilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari esa quyosh, shamol va gidroenergetika resurslarining katta salohiyatiga ega. Natijada ikki mintaqaning kapital va tabiiy resurslar bo'yicha imkoniyatlari o'zaro to'ldiruvchi xarakter kasb etadi. Energetika sohasidagi hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishdir. Bunday loyihalar Markaziy Osiyoning energiya ta'minotini diversifikatsiya qilish bilan birga GCC kompaniyalari uchun uzoq muddatli investitsiya imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari, energiya samaradorligi, energiya saqlash tizimlari va yashil vodorod kabi yangi yo'nalishlarning rivojlanishi kelajakda iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichini shakllantirishi mumkin.

Markaziy Osiyoning dengizga chiqish imkoniyatining cheklanganligi transport-logistika infratuzilmasini iqtisodiy rivojlanishning strategik omiliga aylantiradi. Shu bilan birga, mintaqaning Xitoy, Rossiya, Janubiy Osiyo, Kavkaz va Yaqin Sharq o'rtasida joylashgani unga muhim tranzit salohiyatini beradi. Ayniqsa, Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lagi yoki Middle Corridorning rivojlanishi Markaziy Osiyoning geoiqtisodiy ahamiyatini oshirmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, tegishli siyosiy choralar va investitsiyalar amalga oshirilgan taqdirda Middle Corridor bo'ylab yuk tashish hajmini 2030-yilgacha uch baravar oshirish va tranzit vaqtini ikki baravar qisqartirish imkoniyati mavjud. Mazkur jarayon GCC mamlakatlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Fors ko'rfazi portlari va Markaziy Osiyodagi transport yo'laklarining o'zaro bog'lanishi Yevropa va Osiyo o'rtasidagi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli GCC kompaniyalarining logistika markazlari, port infratuzilmasi va multimodal transport tizimlariga investitsiya kiritishi ikki mintaq o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

GCC-Markaziy Osiyo iqtisodiy aloqalarining rivojlanishini faqat iqtisodiy manfaatlar bilan izohlash yetarli emas. Mazkur jarayonda geosiyosiy va geoiqtisodiy omillar ham muhim o'rin tutadi. Global iqtisodiyotda geoiqtisodiy fragmentatsiyaning kuchayishi mamlakatlarni savdo va investitsiya hamkorlarini diversifikatsiya qilishga undamoqda. IMFning 2026-yilgi

tadqiqotida ham global noaniqlik, geoiqtisodiy fragmentatsiya va savdo ziddiyatlari sharoitida GCC va Kavkaz-Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish iqtisodiy barqarorlik va chidamlilikni kuchaytirishi mumkinligi qayd etilgan. Markaziy Osiyo davlatlari uchun GCC bilan aloqalarni rivojlantirish tashqi iqtisodiy hamkorlikni geografik jihatdan diversifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. GCC davlatlari uchun esa Markaziy Osiyo Yevroosiyo bozorlariga chiqish, yangi investitsiya imkoniyatlarini egallash va transport-geoiqtisodiy aloqalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega. Shu sababli GCC-Markaziy Osiyo munosabatlari iqtisodiy va siyosiy manfaatlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida rivojlanayotgan ko'p qirrali hamkorlik modeli sifatida baholanishi mumkin.

Shunga qaramay, ikki mintaqa o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar mavjud salohiyatga nisbatan hali yetarlicha chuqur emas. IMFning 2026-yilgi tadqiqotida ham GCC-CCA iqtisodiy aloqalarining nisbatan cheklanganligi alohida qayd etilgan.

- Birinchi muammo sifatida savdo tarkibining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligini ko'rsatish mumkin. Ikkinchi muammo transport xarajatlari va logistika infratuzilmasining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi bilan bog'liq. Uchinchi muammo esa investitsiya muhitidagi institutsional farqlar, notarif to'siqlar va investitsiya loyihalari to'g'risidagi axborotning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligidir. Bundan tashqari, ikki mintaqa o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni faqat davlatlararo kelishuvlar darajasida rivojlantirish yetarli emas. Xususiylar sektor, moliyaviy institutlar va kichik hamda o'rta biznes subyektlari o'rtasidagi aloqalarni ham kengaytirish talab etiladi. Kelgusida GCC-Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligining rivojlanishi bir nechta ustuvor yo'nalishlar bilan bog'liq bo'ladi. Birinchidan, investitsiya oqimlarini energetikadan tashqari sanoat, qishloq xo'jaligi, logistika, turizm, raqamli iqtisodiyot va moliyaviy xizmatlarga yo'naltirish zarur.
- Ikkinchidan, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali GCC portlari va Markaziy Osiyo bozorlarini yagona iqtisodiy zanjirga bog'lash imkoniyatlari kengayadi.
- Uchinchidan, qayta tiklanuvchi energetika va yashil iqtisodiyot bo'yicha uzoq muddatli strategik sheriklikni rivojlantirish mumkin.
- To'rtinchidan, islom moliyasi instrumentlari, jumladan sukuk va shariat tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.
- Beshinchidan, savdo va investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish, elektron bojxona tizimlarini rivojlantirish va biznes subyektlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni kengaytirish iqtisodiy hamkorlik xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil GCC va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar so'nggi yillarda yangi sifat bosqichiga o'tayotganini ko'rsatdi. Ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi omillari GCC davlatlarining iqtisodiy diversifikatsiya siyosati, Markaziy Osiyoning investitsiyaviy salohiyati, energetika transformatsiyasi, transport koridorlarining rivojlanishi va global geoiqtisodiy sharoitning o'zgarishi hisoblanadi. Ikki mintaqaning iqtisodiy manfaatlari ko'plab yo'nalishlarda bir-birini to'ldiradi. GCC mamlakatlarining kapital va moliyaviy salohiyati Markaziy Osiyoning infratuzilma, energetika va sanoat loyihalarini rivojlantirish uchun muhim manba bo'lishi mumkin. O'z navbatida, Markaziy Osiyoning tabiiy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va strategik geografik joylashuvi GCC mamlakatlari uchun yangi investitsiya va savdo imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy aloqalar hali ikki mintaqaning real salohiyatiga to'liq mos kelmaydi. Shuning uchun kelgusida savdo va investitsiya to'siqlarini kamaytirish, transport-logistika aloqalarini rivojlantirish,

investitsiya loyihalarini diversifikatsiya qilish, yashil energetika va raqamli iqtisodiyot bo'yicha hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Natijada GCC–Markaziy Osiyo iqtisodiy munosabatlari faqat kapital eksporti yoki ikki tomonlama savdo munosabatlari doirasida emas, balki investitsiya, savdo, energetika, transport, moliya va texnologiyalarni birlashtiruvchi kompleks geoiqtisodiy hamkorlik modeli sifatida shakllanishi mumkin. Bunday model ikki mintaqaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, yangi bozorlarni o'zlashtirish va global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim strategik asos yaratadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Bakhache, S. A., Painchaud, F., Assem, H., et al. (2026). *Strengthening GCC-CCA Economic Cooperation*. IMF Departmental Paper No. 2026/011. [IMF — Strengthening GCC-CCA Economic Cooperation](#)
2. International Monetary Fund. (2025). *Gulf Cooperation Council (GCC)—Enhancing Resilience to Global Shocks: Economic Prospects and Policy Challenges for the GCC Countries*. [IMF — GCC Economic Prospects and Policy Challenges](#)
3. International Monetary Fund. (2026). *Regional Economic Outlook Update: Middle East and Central Asia*. [IMF — Regional Economic Outlook, April 2026](#)
4. World Bank. (2023). *Middle Corridor through Central Asia, Caucasus Can Boost Trade, Connectivity and Supply Chain Resilience*. [World Bank — Middle Corridor](#)
5. World Bank. *Uzbekistan — Country Overview*. [World Bank — Uzbekistan](#)

INNOVATIVE
ACADEMY